

SOLIQLAR TAHLILI

Abduvaxobova Charos Sherzodovna

*TDTrU, "Qurilish muhandislari" fakulteti, 60540200-Amaliy matematika ta'lim
yo'nalishi 1-kurs talabasi,*

Ilmiy rahbar: Eshmamatova Dilfuza Baxromovna

TDTrU, DSc 24dil@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur ilmiy ishda soliqlar va ularning iqtisodiy, ijtimoiy hamda siyosiy hayotdagi o'rnini har tomonlama yoritilgan. Soliq tushunchasining mohiyati, uning kelib chiqish tarixi, asosiy funksiyalari, turlari va klassifikatsiyasi haqida batafsil tahliliy yondashuv asosida ma'lumotlar berilgan. Soliqlar davlat moliyasining muhim manbai bo'lib, davlat tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy dasturlarni moliyalashtirishda asosiy rol o'ynaydi. Shu boisdan, soliq siyosati har bir mamlakatda o'ziga xos strategik ahamiyat kasb etadi.

Ishda bevosita va bilvosita soliqlar, progressiv, regressiv va proporsional soliq stavkalari, shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlar o'rtasidagi farqlar aniq misollar bilan tushuntirib berilgan. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining amaldagi soliq tizimi, unda olib borilayotgan islohotlar, zamonaviy axborot texnologiyalarining soliq yig'imlarida qo'llanilishi, elektron soliq hisobot tizimi, soliq organlarining faoliyati va ularga qo'yilgan talablar alohida e'tibor bilan ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ishda xorijiy mamlakatlar soliq tizimi bilan taqqoslashlar keltirilgan bo'lib, bu O'zbekiston tajribasini boshqa mamlakatlar bilan solishtirishga imkon yaratadi. Soliqlar bilan bog'liq muammolar, ularni hal qilish yo'llari, soliq imtiyozlarining iqtisodiyotga ta'siri, norasmiy sektor va soliqlardan bo'yin tovlash holatlari ham tahlil qilingan.

Mazkur ish nazariy hamda amaliy ma'lumotlarga boy bo'lib, soliq tizimini chuqur o'rganmoqchi bo'lgan talabalar, tadqiqotchilar va soha mutaxassislari uchun foydali manba hisoblanadi. xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Soliq, soliq to'lovchi, jismoniy shaxslarning daromad solig'i (JSHDS), soliq deklaratsiyasi, soliq chegirmasi, kadastr qiymati, soliq solinadigan baza.

DEPOSITS ANALYSIS

Abstract: This scientific work thoroughly explores taxes and their role in economic, social, and political life. It provides an in-depth analytical overview of the concept of

taxation, its historical origins, main functions, types, and classifications. Taxes are a crucial source of state finance and play a key role in funding social, economic, and political programs implemented by the government. Therefore, tax policy holds strategic importance in every country. The paper explains in detail the differences between direct and indirect taxes, progressive, regressive, and proportional tax rates, as well as taxes paid by legal entities and individuals, supported by clear examples. Special attention is given to the current tax system of the Republic of Uzbekistan, the ongoing reforms, the use of modern information technologies in tax collection, the electronic tax reporting system, the functioning of tax authorities, and the requirements set for them. Additionally, comparisons are made with the tax systems of foreign countries, allowing for a comparative analysis of Uzbekistan's experience. The study also addresses issues related to taxation, ways to solve them, the impact of tax incentives on the economy, the informal sector, and cases of tax evasion. This work is rich in both theoretical and practical information, making it a valuable resource for students, researchers, and professionals interested in deeply studying the tax system.

Keywords: *Tax, taxpayer, personal income tax (PIT), tax declaration, tax deduction, cadastral value, taxable base.*

Hozirgi kunda soliqlar har bir davlat iqtisodiyotining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular orqali davlat o'zining asosiy funksiyalarini, ya'ni ijtimoiy himoya, ta'lim, sog'liqni saqlash, mudofaa va infratuzilma kabi sohalarni moliyalashtiradi. Soliqlar nafaqat byudjetni to'ldirish vositasi, balki iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish, daromadlarni qayta taqsimlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish vositasi hamdir. Soliqlar quyidagi turlarga bo'linadi: to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita soliqlar, jismoniy va yuridik shaxslar soliqlari, hamda progressiv, regressiv va proporsional stavkali soliqlar mavjud. Har birining o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular mamlakatning soliq siyosati va iqtisodiy strategiyasiga bog'liq holda qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda soliq sohasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Soliq stavkalari soddalashtirildi, elektron hisobot tizimi joriy qilindi, soliq organlari faoliyati shaffoflashdi. Bu o'zgarishlar tadbirkorlik muhitini yaxshilashga va soliqqa rioya qilish darajasini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, xalqaro tajribalarni o'rganish asosida soliq tizimini takomillashtirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va norasmiy sektordan soliqlarni to'liq undirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilmogda.

Endi bizga kerak bo'ladigan asosiy tushunchalarni [1] – [4] adabiyotlardan keltiraylik.

Soliq – bu davlat faoliyatini moliyalashtirish uchun jismoniy va yuridik shaxslardan majburiy ravishda to'lanadigan, qaytarib berilmaydigan to'lov.

Soliq to'lovchi - qonunga muvofiq soliqlarni to'lashga majbur bo'lgan tashkilot yoki jismoniy shaxs.

Jismoniy shaxslarning daromad solig'i (JShDS) – bu amaldagi qonunchilikka muvofiq shaxs o'z daromadidan to'laydigan soliq turi. Foiz sifatida hisoblanadi. O'zbekistonda jismoniy shaxslar daromad solig'ining asosiy stavkasi 13% ni tashkil qiladi.

Soliq deklaratsiyasi – olingan daromadlar va xarajatlar, daromad manbalari, soliq bazasi, soliq imtiyozlari, soliq miqdori va soliqni hisoblash va to'lash uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlar to'g'risidagi hujjat.

Soliq chegirmasi - bu soliqqa tortiladigan daromad miqdori kamaytirilishi mumkin bo'lgan miqdor.

Kadastr qiymati – ko'chmas mulk ob'ekti, asosan soliqlarni hisoblash uchun davlat tomonidan belgilanadigan qiymat.

Soliq solinadigan baza - soliq solish ob'ekti uchun jismoniy, iqtisodiy yoki boshqa tavsif.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining (SK) 290-moddasiga binoan, pensionerlar uchun yer uchastkasining kadastr qiymati 600 kvadrat metrga qisqartiriladi (nafaqaxo'rga tegishli bitta yer uchastkasi uchun).

Ko'chmas mulk uchun soliq solinadigan baza uning kadastr qiymati sifatida belgilanadi, kadastr qiymati maydoni 10 m² xona uchun, 20 m² kvartira uchun va 50 m² uy uchun (soliq imtiyozlari).

Kvartirani sotib olayotganda - uning qiymatidan 13% soliq chegirmasi bilan qaytarib beriladi (lekin 26 000 000 so'mdan oshmasligi kerak).

1-masala. Nafaqaxo'r Karomat ayaning maydoni 5,2 va 6,2 sotix bo'lgan ikkita yer uchastkasi bor. Bir sotix yerning kadastr qiymati 8 000 000 so'mni tashkil qiladi. Agar soliq stavkasi 0,3% bo'lsa, nafaqaxo'r to'laydigan yer solig'ining miqdorini hisoblang.

Yechish. Ikkala uchastka ham bir hududda joylashganligi sababli, nafaqaxo'r Karomat aya yer solig'ini quyidagicha to'laydi:

$$5,2 + 6,2 - 6 = 5,4 \text{ sotix.}$$

Ya'ni, uning solig'i $8000000 \times 5,4 \cdot 0,003 = 129600$ so'm bo'ladi.

Javob: 129 600 so'm.

2-masala. Poyafzallarni ta'mirlash ustaxonasida oyiga o'rtacha 4 500 000 so'm miqdorida maosh oluvchi 10 nafar ishchi ishlaydi. Jismoniy shaxslarning daromad soliq stavkasi 13 foizni, sug'urta mukofotlari (yagona ijtimoiy soliq) esa ish haqining 30 foiziga teng bo'lgan taqdirda, ustaxona egasi ishchilarning hisobvarag'iga qancha pul va davlatga qancha pul o'tkazadi?

Yechish. 1) Ishchilarning hisob varag'iga $10 \times 4500000 \times 0,87 = 39150000$ so'm o'tkazadi.

2) Davlatga soliq sifatida $10 \times 4500000 \times 0,13 + 1 \times 4500000 \times 0,3 = 19350000$ so'm o'tkazadi.

Javob: 1. 39 150 000 so'm, 2. 19 350 000 so'm.

3-masala. Agar ipoteka krediti bo'yicha hisoblangan foizlar miqdori 350 000 000 so'mni tashkil etsa, ipoteka krediti bo'yicha qancha soliqni Maxmudga qaytarishi mumkin.

Qo'shimcha ma'lumot.

Ipoteka uchun foizlar chegirmasini hisoblash uchun maksimal miqdor 300 000 000 so'mni (2018 yil uchun) tashkil etadi. Ipoteka kreditlashda chegirma bu sotib olingan mulkning qiymati bo'yicha ham, qarz mablag'laridan foydalanganlik uchun bankka to'langan foizlar bo'yicha ham soliqqa tortiladigan foyda miqdorini kamaytiradigan miqdordir. O'zbekiston fuqarolari, mamlakatimiz hududida qonuniy ravishda mehnat faoliyatini amalga oshiradigan va shaxsiy daromad solig'ini to'laydigan chet elliklar soliqni kamaytirish uchun murojaat qilishlari mumkin. To'langan foizlarning maksimal miqdori 300 000 000 so'mni tashkil etadi va qaytarilishi lozim bo'lgan summa mos ravishda 39 000 000 so'mni tashkil qiladi ($300000000 \times 0,13$).

Yechish. Ipoteka kreditidan foydalanganda ipoteka krediti bo'yicha foizlarni to'lash uchun soliqni qaytarish mumkin. Bizning holatlarimizda, ipoteka krediti bo'yicha hisoblangan foizlar summasi eng kam ushlab qolish summasidan katta bo'lganligi sababli Maxmudga qaytariladigan summa quyidagicha bo'ladi: so'm. $300\,000\,000 \times 0,13 = 39\,000\,000$

Javob: 39 000 000 so'm.

Soliqlar tahlili iqtisodiyotning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, davlat byudjeti daromadlarining asosiy manbalarini o'rganishga yordam beradi. Ushbu tahlil orqali soliq tushumlarining tarkibi, o'sish tendensiyalari, soliq siyosatining samaradorligi va aholi hamda tadbirkorlik subyektlariga bo'lgan ta'siri aniqlanadi. Tahlil natijalari asosida soliq tizimini yanada takomillashtirish, soliq yukini adolatli taqsimlash va investitsion muhitni yaxshilash imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, bu tahlil davlat va soliq to'lovchilar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashda ham muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Garret S.J. An introduction to the mathematics of finance. A deterministic Approach. USA. 2013.
2. Четыркин Е.М. Финансовая математика: Учебник.- 6-е изд. испр. – М.: Дело, 2006, -400 с.
3. Ширшов Е.В., и др. Финансовая математика: Учебное пособие - М.: КНОРУС, 2010. 146 с.
4. Брусов П.Н., Филатова Т.В., Орехова Н.П., Брусов П.П. Финансовая математика. Учебное пособие - М.: КНОРУС, 2015. 153 с.
5. Вақоуев М., Муҳамедов А. “Moliyaviy matematika” O’quv qo’llanma – T.: JIDU, 2013, - 256 b.
6. Wahidudin A.N. Financial mathematics and its applications. 2011.
7. Шодиев Ҳ., Ҳамроев М. Молия статистикаси – Т.: Абу Али Ибн Сино номидаги тиббиёт нашрети, 2002.
8. www.gazeta.norma.uz